

O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY SHAKLLANGAN MAHALLALARDA MILLIYLIKNI SAQLAB QOLISHNING AKSIOLOGIK O'RNI

Qoraboyeva Dildora Danil qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrası katta o'qituvchisi(PhD).

saboxat.alimova@mail.ru

+998 908134818

Maksudova Xakima Xaldarovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrası katta o'qituvchisi

Utayv G'ayrat G'aybullaevich

Toshkent tibbiyot akademiyasi

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

+998 97 726 31 11

Annotatsiya: O'zbekistonda mahallaning shakllanish tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqalashi bilan birga dunyodagi eng nodir o'zini-o'zi boshqaruv instituti sifatida ajralib turadi. Ushbu maqolada mahalla institutining shakllanish va rivojlanish tarixi, mazmun-mohiyati, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar shakllangan va yuzaga kelgan o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan maskan ekanligi qiyosiy tahlil qilingan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ma'naviyat, mahalla, oila, ijtimoiy himoya, guzar, elat, fuqarolar, taraqqiyot, urf-odat, maskan, ma'naviyat, genezis, milliy qadriyat, madaniyat, qadriyat, ma'naviy taraqqiyot, din, madaniyat, jamiyat, an'ana, erkinlik, millat, aksiologiya.

KIRISH

Mahalla azaldan hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tinchlik-osoyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat hamda tarbiya maskani bo'lib kelgan. Shunisi e'tiborga molikki, bugungi kunda ham mahalla odamlar o'rtasida mehr-oqibat bardavomligini ta'minlash, milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash, odamlarga har tomonlama ko'mak berish bilan samarali faoliyat olib borayotgan tuzilmaga aylandi.

Insoniyat qadim zamonlardan yer yuzida istiqomat qilib kelayotgan bo'lsa, asrlar osha o'z jamiyatini yaratib, uning mustahkam poydevoriga asos soldi. Ibtidoiy davrlardan odamlar guruhlariga bo'linishni boshlab, qabilachilik yashash tarzidan evolyusion taraqqiyot jarayonlarida o'zining jamiyatini shakllantirib bordi.

Har bir xalqning, har bir yurtning qadr-qiymati, uning bashariyat tarixidagi o'rni va maqomi jahon ilm-fani va madaniyati rivoji, umumbashariy tamaddun va taraqqiyotga qo'shgan hissi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mahalla instituti rasmiy nom bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deb ataladi. Mahalla instituti juda qadim tarixga borib taqaladi. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda mahalla kabi o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan va shu kungacha ham saqlanib qolgan.

Olamning aksiologik manzarasidagi o'zgarishlar qadriyatlarni tadqiq etish muammosining dolzarblik darajasini oshiradi.

Mahalla haqida so'z yuritganimizda uning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi juda qadim tarix sahifalariga borib taqalishi haqida tarixiy faktlarga ko'zimiz tushadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa mahalla "shaharning bir necha ko'chaning o'z ichiga olgan bir bo'lagi va uning sifatida ta'riflangan. Shuningdek, mahalla tushunchasi "jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch", "o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli", o'zini o'zi boshqarishning noyob bo'lagi", "joylardagi o'zini o'zi boshqarish tizimining tayanchi", "tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskan", "keng xalq ommasini davlat, hokimiyat idoralari bilan bog'lab turuvchi ko'pri", "noyob betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi", demokratik to'g'rilik", qadriyatlar maskani", "xalq vijdoni", "demokratiya darsxonasi" kabi yuksak e'tiqlar bilan ta'riflanadi.

Chindan ham azaldan mahalla milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar shakllangan va yuzaga kelgan maskan hisoblangan. Bu maskanda ahillik va hamjihatlik, keksalarga hurmat-u yoshlarga izzat, muhtojlarga muruvvat ko'rsatish kabi ko'plab ibratli milliy va diniy qadriyatlar hukmron bo'lgan.

Hozirgi kunda ham xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirishda mahalla institutisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni kelajak avlodga saqlab qolib, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

«Mahalla» atamasining kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi va u arabcha so'z bo'lib o'zbek tilidagi "joy", "o'rin", "makon" ma'nosini bildiruvchi so'zidan kelib chiqqan. Shaharning ma'lum bir hududini o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy hududiy bulagi; Ayni bir hududda yashovchilar mahalla a'zolari.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jez davrining yodgorligi bo'lgan Sopollitepada 8 ta oila yashagan. Demak, Mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. [1]

Boshqa tarixiy manbalarda u turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarida atalib kelingan. Ammo mahalla nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan hisoblanadi. Shu bilan birga mahalla milliyligimiz timsoli hamda qadriyatlar va urf-odatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida, o'zligimizni anglashga, milliy g'urur va vataparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi. Qadim zamonlardayoq yurtimizda mahallalar ijtimoiy hamkorlik maskani sifatida sharqona demokratiyaning yadrosi bo'lib xizmat qilgan.

Azaldan mahalla milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar shakllangan va yuzaga kelgan maskan hisoblangan. Bu maskanda ahillik va hamjihatlik, keksalarga hurmat-u yoshlarga izzat, muhtojlarga muruvvat ko'rsatish kabi ko'plab ibratli milliy va diniy qadriyatlar hukmron bo'lgan.

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo'lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida oxirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig'inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta'mirlandi va 350 dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmonining 1-maqradi: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, deb nomlanib unda mahallaning jamiyatdagi o'rni va ta'siri oshirishga oid quyidagi strategik vazifalar belgilab qo'yildi:

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.

Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish.

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish.

Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvdan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta'minlash, bank-moliya, tomorqa, yer, chorvachilik va parrandachilik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish[3]"

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki mahalla o'z mohiyati va faoliyatiga ko'ra, faqat hududiy uyushma emas, balki ijtimoiy tuzilma, ya'ni kishilar turmush tarzining tashkiliy shakli hamdir. Mahallaning asosiy vazifasi o'ziga tegishli ma'muriy hududiy birlik doirasida oilalar turmush tarzidan xabardor bo'lish, oilaviy urf-odat va marosimlarda qatnashish hamda uni boshqarish jarayonlarida ishtirok etishdan iborat. Bu haqda O'zbekiston birinchi Prezidenti I. Karimov shunday degan edi: "Mahalla hozir xalq ishonchini qozongan adolatli maskan hamda aholini qo'llab-quvvatlash mexanizmi bo'lib qoldi. U jamiyatimizda islohotlarni amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan vositasiga aylanmog'i darkor"[4].

Mahalla bo'yicha ma'lumotlar eng qadimiy tarixiy etnografik adabiyotlardan biri bo'lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da jamiyatning birlamchi iqtisodiy asosi, ijtimoiy tarkibi oila (nmana), urug'-jamoavis), qo'niqoshni jamoa(dahyu) deb atalgan va ular jamiyatda o'zaro uyushqoqlikni ta'minlagan[5].

A.O. Makovelskiy ta'rificha, zardushtiyalar jamoasida kishilar turmush tarzi, xo'jalik munosabatlari, diniy e'tiqodlariga ko'ra bir qancha toifalarga bo'linganki, ularning mavqei "Avesto" kitobida maxsus qayd etilgan[6].

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida

ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[7] qarori hayotga tatbiq etilayotgan yangilik va o'zgarishlar mahallaning xalqchil tuzilmaga aylanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy Maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-tahlil, statistik va amaliyot materiallarini urganish kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahalla — barchamizni jipslashtiradigan, mehr-oqibatni, insoniylikni o'rgatadigan, asrlar osha milliy urf-odat va an'alarimizni bezavol saqlab keladigan maskan. Prezidentimiz rahbarligida sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida u hayotimizga daxldor bo'lgan barcha masalalarni hal etishda xalq va davlatni bir-biriga yaqinlashtirib, munosabatlarni tartibga soluvchi muhim tuzilmaga aylangan.

Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqloq, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal yoki bemorlikda – sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi.

Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi.[9]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son armoni, mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi "ko'priq" vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishiga ko'maklashish;

mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta'minlash;

har bir fuqaro o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta'minlashda mas'uliyatni sezishi, boqimandalikka o'rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish;

fuqarolarni o'z uyi va ko'chasini ozoda saqlashga, milliy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilishga chaqirish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarda mahallaning o'rnini kuchaytirish, aholi o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini ko'rish;

mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish belgilandi.[8]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.05.2024 yildagi “O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 291-son qarorida Mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta'minlash, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, uning tuzilmalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasiga yuklangan vazifalarning to'laqonli bajarilishini qo'llab-quvvatlash yuzasidan aniq chora tadbirlar belgilab berdi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlaryaratdi. [10]

Bugungi kunda mahalla tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqimizning eng yaxshi fazilatlarini – yaxshi qo'shnichilik va o'zaro yordam, insonparvarlik va rahmdillik an'alarini tiklash va rivojlantirish bo'yicha aholi bilan faol ish olib bormoqda. U aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun haqiqiy markazga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda yashaydigan har bir insonning muammolarini aniqlash va hal qilishga ko'maklashish g'oyasi Yangi O'zbekiston uchun eng ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun joylarda xonadonbay, mahallabay ishlash, mahallalarning “o'sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvdan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi izchil kuchaytirilmoqda.

Shunday qilib, xalqimiz uchun mahalla Vatanning aziz parchasi, doimo ardoqlab-e'zozlanadigan go'sha hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Mahalla biz barpo etayotgan yangi jamiyat – inson qadri ulug'lanadigan, huquq va erkinliklari ta'minlangan, qonun ustuvorligi mustahkam qaror topadigan ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatining asosidir”.

Mamlakatimizda mahalla institutining huquqiy asoslarini mustahkamlash, vakolati va vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarini ta'minlashga qaratilayotgan alohida e'tibor samarasida o'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'zni tobora ortib bormoqda.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashuv jarayoni ketmoqda. Shu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu avvalombor xo'jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatishda namoyon bo'lmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish mumkinki aholini dardini eshitadigan va ularning muammolarini davlat darajasiga olib chiqadigan fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari ya ‘ni mahallalar ijtimoiy institut sifatida har qachongidan ham ahamiyati oshib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ibrohimov I. Mahalla — xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prik // Xalq so‘zi online. – 2024. – 15 yanvar.
2. Ishquvvatov V., Tolipov F. Mahalla: o‘tmishda va bugun. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – 11 b.
3. Karimov I. A. O‘zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 29 b.
4. Makovelskiy A. O. Avesta. – Boku, 1960. – S. 89–91.
5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi: Birinchi kitob A–H. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2022. – 740 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 2022. – 29-yanvar. – № 06/22/60/0082.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2023. – 21-dekabr. – PF–209-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-6705763>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2017. – 3-fevral. – PF–4944-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-3106223> (data murojat: [кўрсатинг]).
9. “Qadriyat” // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 1-jild, Q harfi. – Toshkent, 2000.
10. 1-mavzu. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida. Ijtimoiylashuv tushunchasi. – URL: <https://azkurs.org/1-mavzu-ijtimoiy-pedagogika-fan-sifatida-ijtimoyilashuv-tushun.html?page=40>.
11. Saidov A. X. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2019. – 320 b.
12. Xolmurodov D. Mahalla va ijtimoiy boshqaruv. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 228 b.